

Belgilab berilgan vazifalar ijrosi yuzasidan 2025-yilning 2-choragida amalga oshirilgan ishlar

Boshqarmada o'tkazilgan kengaytirilgan Kengash yig'ilishini boshqarma boshlig'i A.Tashnazarov ochib berdi va yig'ilish kun tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirib o'tdi.

Statistika dasturi doirasida boshqarma va tuman (shahar) statistika bo'limlari tomonidan 2025- yilning 1-yarim yillik faoliyatida amalga oshirilgan ishlar, pirovardida ishlab chiqilgan tahliliy-statistik ma'lumotlar keltirib o'tildi.

Shuningdek, sohada islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish, tizimda transformatsiya jarayonlarini amalga oshirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi "Statistika ishlarni tashkil etish va yuritish tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-27-son Farmoni va "O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-75-son qarori ijrosiga muvofiq, amalga oshirilayotgan ishlar, erishilgan natijalar hamda hududiy statistika organlari tomonidan yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar batafsil muhokama qilindi.

Statistika dasturi doirasida boshqarma va tuman (shahar) statistika bo'limlari tomonidan 2025- yilning 2-choragida amalga oshirilgan ishlar, pirovardida ishlab chiqilgan tahliliy-statistik ma'lumotlar keltirib o'tildi.

Jumladan, 2025- yilning yanvar-iyun oylarida Navoiy viloyatining yalpi hududiy mahsuloti hajmi 67 892,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2024-yil bilan taqqoslaganda 7,9 foizga o'sdi.

Viloyat korxonalari tomonidan 2025-yilning yanvar-iyun oylarida 87 455,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi indeksi 109,3 foizni tashkil etdi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 9 245,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilga nisbatan o'sish sur'ati 104,1 foizga yetdi.

2025- yilning yanvar-iyun oylarida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmida 2024- yilga nisbatan 112,0 foiz o'sish kuzatildi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 11 320,9 mlrd. so'mni, 2024-yilga nisbatan o'sish sur'ati 113,5 foizni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi 7 130,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilga nisbatan 109,2 foizga oshdi. viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2025- yilning yanvar-iyun oylarida 864,6 mln. AQSH dollarini, jumladan eksport 648,8 mln. AQSH dollarini va import 215,7 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Yig'ilishda, Navoiy viloyati statistika boshqarmasi va bo'limlarida 2025- yil II- chorak davomida amalga oshirilgan ishlar hamda kelgusida statistika faoliyatini tashkil etish yuzasidan tizim oldiga belgilab berilgan vazifalarning ijro holati, hisobot va ijro intizomini mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar samaradorligi muhokama etildi.

2025- yil yanvar-iyun oylarida Kadrlar malakasini oshirish va statistika tadqiqotlari institutida tizim xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish dasturiga asosan 8 turdagi o'quv kurslarida 16 nafar xodimlarning malakasi oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 27- iyundagi "Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4366-sonli qarori talablari asosida ommaviy axborot vositalarida statistika faoliyatiga oid 86 ta televideniya, 84 ta radio, 181 ta gazeta hamda boshqarmaning veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlarda 895 ta statistik ko'rsatkichlar chop etildi.

Hisobot davrida Statistika dasturida belgilangan muddatlarda va to'liq hajmda 533 ta statistika ishlari bajarildi va iqtisodiyot sohalari hamda tarmoqlari rivojlanishi maqsadli kompleks dasturlari monitoringi uchun miqdoriy ko'rsatkichlar shakllantirib borildi, hududlar hamda iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishi holatini kompleks tavsiflovchi tahliliy statistik ma'lumotlar har oy va har chorakda Milliy statistika qo'mitasi va viloyat hokimligiga taqdim etib borildi.

Tayyorlangan tahliliy statistik ma'lumotlar infografika, diagramma va videoroliklar ko'rinishida Navoiy viloyati teleradiokompaniyasi orqali efirga uzatildi.

Tadbirkorlik subyektlari o'rtasida profilaktika ishlarini olib borish maqsadida, viloyat bo'yicha 72 marotaba seminarlar va 82 marta ommaviy axborot vositalarida chiqishlar tashkil etildi hamda 5 039 ta buklet va qo'llanmalar tarqatildi.